

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/05.05.2023.I.72.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

USMANOVA AZIZA BAXODIROVNA

BUXORO VILOYATINING TURIZM SALOHIYATIDAN FOYDALANISH
SAMARADORLIGINI OSHIRISH

08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertasiyasi
AVTOREFERATI

Buxoro – 2024

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertasiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
экономическим наукам**

**Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) in economic
sciences**

Usmanova Aziza Bahodirovna

Buxoro viloyatining turizm salohiyatidan foydalanish samaradorligini oshirish.....3

Усманова Азиза Баходировна

Повышение эффективности использования туристического потенциала
Бухарской области29

Usmanova Aziza Bakhodirovna

Improving the efficiency of using the tourism potential of the Bukhara region57

E'lon qilingan ishlar ro'uxati

Список опубликованных работ
List of published works.....62

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/05.05.2023.I.72.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

USMANOVA AZIZA BAHODIROVNA

BUXORO VILOYATINING TURIZM SALOHIYATIDAN FOYDALANISH
SAMARADORLIGINI OSHIRISH

08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertasiyasi
AVTOREFERATI

Buxoro – 2024

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.3.PhD/Iqt2420 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Buxoro davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.buxdu.uz) va "Ziyonet" Axborot-ta'lim portali (www.buxdu.uz)da joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: Aslanova Dilbar Xasanovna
iqtisodiyot fanlari falsafa doktori, professor

Rasmiy opponentlar: Aliyeva Mahbuba Tuychiyevna
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Ochilov Akram Odilovich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot: Samarqand davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Buxoro davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/05.05.2023.I.72.05 raqamli ilmiy kengashning 2024 yil "20" iyun kuni soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: Buxoro shahri, M.Iqbol ko'chasi, 11-uy. Tel.:(99865) 221-29-14; e-mail: buxdu_rektor@buxdu.uz.

Dissertatsiya bilan Buxoro davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (454 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: Buxoro shahri, M.Iqbola ko'chasi, 11-uy. Tel.:(99865) 221-25-87; e-mail: buxdu_arm@umail.uz

Dissertatsiya avtoreferati 2024 yil « 5 » iyun kuni tarqatildi.

(2024 yil) « 5 » iyun dagi 4 raqamli reestr bayonnomasi).



O.X. Xamidov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi,
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

D.Sh. Yavmutov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
kotibi, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

B.N. Navruz-Zoda

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi, iqtisodiyot
fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zaruriyati. Dunyoda turizm sohasi iqtisodiyotning eng jadal rivojlanayotgan va ilg'or tarmoqlaridan biriga aylanib borayotganligi sababli, mintaqalarda turizmni barqaror rivojlantirishni kengaytirish masalalari o'rganish uchun birlamchi ahamiyat kasb etmoqda. Butunjahon turistik va sayohat kengashi (WTTC) ma'lumotlariga ko'ra "2022-yilda turizmning jahon yalpi ichki mahsulotiga qo'shgan hissasi 7,7 tril. AQSh dol. tashkil etgan, bu 2019-yilga nisbatan 23% kam"¹. Bular Covid-19 pandemiyasi oqibatlari tufayli turizmning pasayishi ortidan turizm 2019 yil darajasiga (jahon turizmi tarixidagi eng muvaffaqiyatli yil) yetib bormadi. Shu jihatdan mintaqaning turizm salohiyatidan foydalanish samaradorligini oshirishning ustuvor yo'nalishlari va usullarini takomillashtirishni muhim bo'lgan salohiyatga ega hududlarda turizmni rivojlantirish yo'llarini o'rganish, bugungi kunda dolzarb masala bo'lib va muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Jahonda turizmning o'sish nuqtalarini aniqlash va mintaqalarda turizmni barqaror rivojlantirishga yo'naltirilgan ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Bunda, mintaqaviy turizm infratuzilmasini takomillashtirish, hududning turizm salohiyatidan foydalanish samaradorligi oshirish, hududlarda turizmni rivojlantirish samaradorligini baholash metodikalarini takomillashtirish, turizmni innovatsion va raqamli rivojlantirish kabi mavzulardagi ilmiy-tadqiqot ishlariga ustuvorlik berilmoqda.

Yangi O'zbekistonda iqtisodiyotning strategik tarmog'i sifatida turizmni jadal rivojlantirishga alohida etibor qaratilmoqda. O'zbekistonda turizm sohasining barqaror rivojlanishi sharoitida hukumat tomonidan "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"dagi farmonida ko'rsatilgan chora-tadbirlarida respublikada turizmni takomillashtirish ishlari olib borilmoqda, unda tegishli bandda "Buxoro viloyatida turizmni jadal rivojlantirish bo'yicha alohida dastur amalga oshirilishi" bo'yicha muhim vazifalar belgilab berilgan². Ushbu vazifalarini amalga oshirishda, jumladan 2022-2026 yillarda xorijiy va mahalliy turistlar sonini 5 mln nafarga, eksport hajmini 600 mln AQSh dollariga yetkazish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-maydagi PF-6002-son "Koronavirus pandemiyasining salbiy ta'sirini kamaytirish uchun turizm sohasini qo'llab-quvvatlashga doir kechiktirib bo'lmaydigan chora-tadbirlar to'g'risida"gi, 2022-yil 15-yanvardagi PF-52-son "Turizm, madaniyat, madaniy meros va sport sohalarini yanada rivojlantirish uchun qo'shimcha sharoitlar yaratish to'g'risida"gi, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmonlari, 2023-yil 26-apreldagi PQ-135-son "Respublikaning turizm salohiyatini jadal rivojlantirish hamda mahalliy va xorijiy turistlar sonini yanada oshirishga doir qo'shimcha chora-

¹ Oksford iqtisodiyoti bilan birgalikda tayyorlangan Butunjahon turizm va sayohat kengashi (WTTC) hisoboti - <https://www.aviapages.ru/news/263717>

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 28.01.2022 yildagi PF-60-son «2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida» - <https://lex.uz/ru/docs/5841077>

tadbirlar to‘g‘risida’gi, Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 28 sentyabrdagi 543-son “2022-2026 yillarda Buxoro viloyatida turizm sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida’gi qarori hamda sohaga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqot mavzusining respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya ishi respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Demokratik va huquqiy jamiyatni ma‘naviy-ahloqiy hamda madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish” ustuvor yo‘nalishlariga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Iqtisodiy adabiyotlarda turizm bozorini rivojlanishining turli jihatlarining nazariy va uslubiy muammolari o‘rganilgan. Turizm iqtisodiyotiga xos bo‘lgan ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarning nazariy va amaliy masalalari, shuningdek, sayyohlik resurslardan foydalanish, mintaqaning turistik salohiyatidan samarali foydalanishning ayrim muammolari xorijiy mamlakatlar olimlarining ilmiy ishlari va tadqiqotlarida aks ettirilgan, ular orasida A. Antinazi, A.Yu. Aleksandrova, E.A. Kuklina, X.A. Naser, S.L. Sichev, E.O. Ushakova Jing Wang, Yi Wang, Yinchun He, Zhangxiang Zhu, Jégouzo L. va boshqalarni ko‘rsatish mumkin³.

Mintaqaviy turizmning nazariy asoslari va amaliy jihatlari, hududlarning turistik salohiyati E. I. Bogdanov, D. V. Nikolaenko, A. S. Kuskov, Li Tyashin, S. V. Pankov, E. Yu. Kolobkovskiy, E. Djanjugazova kabi olimlarning ilmiy ishlari va tadqiqotlarida ko‘rib chiqilgan⁴.

Turizm va turizm faoliyatini tashkil etish sohasidagi boshqaruv tizimini takomillashtirishning uslubiy vazifalariga bag‘ishlangan tadqiqotlar orasida bir qator ilmiy ishlarni ajratib ko‘rsatish mumkin: E.G. Somova, S.A. Shabalina, V.A.

³ Антинази А., Энциклопедия социологии, 2009; А.Ю.Александрова Лучшие мировые практики разработки стратегий развития туризма //Современные проблемы сервиса и туризма. – 2020. – Т. 14. – №. 1. – С. 7-15; Куклина, Е.А. О государственной политике в сфере туризма и рекреации (в контексте лучших мировых практик) / Е. А. Куклина, Д. Ю. Десятниченко // Управленческое консультирование. – 2017. – № 10(106). – С. 15-29; Насер Х. А. Французский опыт управления развитием туризма //Сервис в России и за рубежом. – 2016. – Т. 10. – №. 4 (65). – С. 132-140; Сычев,С.Л. Комплексное освоение прибрежной зоны Черного моря - важнейший фактор ее устойчивого развития : автореферат дис. ... кандидата географических наук: 25.00.24 / Кубан. гос. ун-т. - Краснодар, 2006. - 24 с.; Ушакова,Е.О. «Совершенствование методических подходов к комплексной оценке ресурсов территории для развития сферы туризма» диссертация на соискание учённой степени кандидата экономических наук, Новосибирск, 2016, 233с.; Jing Wang, Yi Wang, Yinchun He and Zhangxiang Zhu Exploring the Factors of Rural Tourism Recovery in the Post-COVID-19 Era Based on the Grounded Theory: A Case Study of Tianxi Village in Hunan Province, China, 2022; Jégouzo L. L'évolution de la politique publique du tourisme en France //Mondes du Tourisme. – 2019. – №. 15., 11с.

⁴ Богданов Е.И. «Планирование на предприятии туризма», Учебное пособие для вузов. СПб. Изд. дом "Бизнес-пресса". 2003 год. 288с; Кусков А.С. Туристское ресурсоведение: Учебник для студ. высш. учеб. заведений / Алексей Сергеевич Кусков. – М.: Издательский центр «Академия», 2008. – 280 с.; Николаенко Д.В. «Рекреационная география»: учеб. пособие - Москва: Гуманит. изд. центр ВЛАДОС, 2003 – 279 с.; Тяшин Ли, Панков С.В. Анализ опыта восстановления туризма в Китае: состояние и прогнозы. Геополитика и экогеодинамика регионов, 7(2), 218-230; Колобковский Е. Ю. Экологический туризм и экология туризма. М., 2007.; Джанджугазова, Е. А. Маркетинговые технологии в туризме: маркетинг туристских территорий : учеб. пособие для СПО / Е. А. Джанджугазова. — 3-е изд., испр. и доп. — М. : Издательство Юрайт, 2019. — 208 с.

Rubtsova, D.G. Mamraeva, L.V. Tashenova, S.P. Kirilchuka, A.S. Muzika, G.A. Alimova, E.S. Mitrofanova va boshqalar⁵.

O'zbekiston sharoitida turizm sohasini rivojlantirishning ayrim muammolari K. X. Abdurahmonov, N.T. Tuxliev, T. Abdullayeva, M. E. Po'latov, Q.J. Mirzayev, Sh.A. Sulstonov, E. Shavqiyev, I.S. Tuxliev, G. Qudratov, M.K. Pardayev, M.R. Boltaboyev, B.Sh. Safarov, S.A. Abduhamidov, M. Muhammedov, M.T. Alimova, M.T. Aliyeva, A.A. Eshtayev, O.X. Hamidov, D.X. Aslanova, Z.I. Sattarova, B.N. Navro'z-Zoda, N.S. Ibragimov, N. Ibadullayev va boshqalar⁶ tomonidan tadqiq qilingan.

Turizmni yanada rivojlantirish, uning ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligini oshirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilayotgan bo'lsa-da, ular joriy ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning o'zgarishini etarlicha aks ettirilmagan, shuningdek, pandemiya davrida turizmni rivojlantirish masalalari mamlakatning har bir mintaqasining turizm salohiyatini oshirish uchun aks ettirilmagan. Mintaqaning turistik salohiyatini rivojlantirishga ta'sir etuvchi omillar etarlicha o'rganilmagan, Buxoro viloyatining turistik ob'ektlarida xizmat ko'rsatish sifatini o'rganish bo'yicha ma'lumotlar etarli emasligi, turizm sanoatining kelajakdagi rentabelligini hisoblash uchun turistlarning kelajakdagi xarajatlarning aniq prognoz parametrlari mavjud emasligi, Buxoro viloyatining turistik salohiyatidan samarali foydalanish bo'yicha tadqiqotlar va tahlillar etarli emasligi aniqlangan. Ushbu ko'rsatkichlarni

⁵ Кирильчук С.П. Музыка А.С. Пятиэтапная схема декомпозиционного анализа, как методологическая модель оценки ресурсного потенциала туризма; Мамраева Д.Г., Ташенов Л.В. Методический инструментарий оценки туристско-рекреационного потенциала региона // Экономика региона.-2020.-Т.16, вып.1 – С.127-140; Митрофанова Е.С. Управление развитием туристского потенциала региона на основе государственно-частного партнерства, автореферат, Санкт-Петербург-2010; Сазыкин А.Е., Сомова Е.Г. Методика оценки территориального распределения рекреационного потенциала (на примере национального парка «Земля Леопарда»), Геополитика и экогеодинамика регионов, 2019, с. 20; Шабалина С.А., Рубцов В.А. Оценка рекреационного потенциала и развитие внутреннего туризма в Республике Татарстан // Туризм и региональное развитие. Вып.3. Сб. научных статей. Под ред. Л.Ю.Мажар. – Смоленск: изд-во «Универсум», 2004. – С. 376-377

⁶ Абдурахмонов К.Х. Менеджмент туризма: Учебное пособие. –Т.: Филиал ФГБОУ ВПО «РЭУ им. Г.В.Плеханова» в г. Ташкенте, 2013.-248с.; Тухлиев Н., Абдуллаева Т. Менеджмент и организация бизнеса в туризме Узбекистана. -Т.: Гос. Науч. Изд. "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi", 2006. -386 б; Пулатов М.Э., Мирзаев Қ.Ж., Султонов Ш.А., Шавқиев Э. Глобал иқтисодий ривожланиш (туризм иқтисодиёти). Ўқув қўлланма. Т.: Фан ва технология, 2018. –296 б.; Тухлиев И. Туризм асослари. -Самарқанд, СамИСИ. 2010. -271 б.; Тухлиев И., Кудратов Ф., Пардаев М. Туризмни режалаштириш. Дарслик. Т.: "Иқтисод ва молия" 2008.-262 б.; Болтабоев М.Р., Тухлиев И.С., Сафаров Б.Ш., Абдухамидов С.А. "Туризм: назария ва амалиёт". Электрон дарслик.-Т., 2017; 74 б.; Мухаммедов М. ва бошқалар. Минтақа иқтисодиётининг замонавий муаммолари. Монография.-Т.: LESSON PRESS, 2020; Алимова М.Т. Худудий туризм бозорининг ривожланиш хусусиятлари ва тенденциялари // иқт. фан. докторлик диссертацияси автореферати. Самарқанд СамИСИ, 2017. –96 б; Алиева М.Т. Иқтисодиётни эркинлаштириш шароитида туризм хизматлари соҳасини бошқаришнинг иқтисодий жиҳатлари (Ўзбекистон Республикаси мисолида) // иқт. фан. докторлик диссертацияси автореферати. -Самарқанд, 2019; Эштаев А.А. Глобаллашув шароитида туризм индустриясини бошқаришнинг маркетинг стратегияси (Ўзбекистон Республикаси туризм тармоғи мисолида) // иқт. фан. докторлик диссертацияси автореферати- Самарқанд, 2019; 120 б.; О.Х.Хамидов Ўзбекистонда экологик туризмни ривожлантиришни бошқариш механизмини такомиллаштириш // иқт. фан. докторлик диссертацияси автореферати. -Самарқанд, 2017; ДХ Асланова, ЗИ Саттарова Региональный туристский кластер как инструмент повышения эффективности экономики региона// монография, Самарқанд-2016; Навруз-Зода Б.Н., Ибрагимов Н.С. Туристтик худуд рақобатбардошлигининг кўп даражали модели. Монография. Бухоро. "Дурдона" нашриёти. 2018. 160 б.; Ибадуллаев Н. Туристтик ресурслардан фойдаланиш самарадорлигини ошириш имкониятлари (Самарқанд вилояти мисолида) // иқт. фан. номзодлик диссертацияси автореферати -Самарқанд, 2010

o'rganish Buxoro viloyatida turizmni yanada rivojlantirish uchun dolzarb masalalardir.

Tadqiqot mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya mavzusi Buxoro davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq hamda OT-F1-04 raqamli "Raqobatbardosh turizm zonalari va klasterlarini shakllantirish asosida O'zbekistonda turizmni davlat darajasida barqaror rivojlantirishning strategik yo'nalishlarini ishlab chiqish" mavzusidagi fundamental loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi Buxoro viloyatining turizm salohiyatidan foydalanish samaradorligini oshirish bo'yicha ilmiy takliflar va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

"mintaqaning turistik salohiyati" toifasining mohiyatini nazariy tahlil qilish va uning ta'rifini takomillashtirish;

Buxoro viloyatining moddiy-texnik, tabiiy va ijtimoiy-madaniy salohiyatidan foydalanishni tahlil qilish asosida mintaqaning turizm salohiyatini rivojlantirishga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash;

turistlar va turistik kompaniyalari rahbarlari o'rtasida sotsiologik so'rov o'tkazish orqali turistik ob'ektlar va infratuzilmadan foydalanish samaradorligini, shuningdek xizmat ko'rsatish sifatini aniqlash;

turistik salohiyatdan foydalanish samaradorligini baholash yondashuvlarini tahlil qilish asosida turistik salohiyatdan foydalanish samaradorligini baholash metodologiyasini takomillashtirish;

Buxoro viloyatining turizm salohiyatidan foydalanish samaradorligini aniqlash;

Buxoro viloyatida 2024-2026-yillarda bo'lgan davrda turistlar xarajatlarining prognoz ko'rsatkichlarini ishlab chiqish;

Buxoro viloyatining turizm salohiyatidan foydalanishning iqtisodiy samaradorligini oshirish bo'yicha ilmiy asoslangan takliflarni ishlab chiqish;

turistik salohiyatni boshqarishning tashkiliy va iqtisodiy modelini ishlab chiqish.

Tadqiqotning ob'yekti sifatida Buxoro viloyati turizm bozori subyektlarining faoliyati olingan.

Tadqiqotning predmetini mintaqaning turizm salohiyatini shakllantirish va rivojlantirish bilan bog'liq ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda tarkibiy va dinamik tahlil omillarni tahlil qilish usullari, statistik usullar, matematik va grafoanalitik usullar, tizimli tahlil va sintez usullari, ijtimoiy so'rov usuli, ekonometrik tahlil va ilmiy prognozlashtirish usullari qo'llanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

uslubiy yondashuvga ko'ra "mintaqaning turizm salohiyati" tushunchasining iqtisodiy mazmuni turistik resurslar bo'yicha tarixiy-madaniy va tabiiy-iqlimiy, mehmondo'stlik imkoniyatlari bo'yicha mutaxassislar malakasi, mahaliy aholining turistlarga ochiqligi va turizm infratuzilmasi, ob'ektlarning o'tkazish salohiyati

bo'yicha turizmning mahalliy aholi turmushiga ta'siri va turizm rivojlanishining turistik ob'ektlarga ta'siri omillariga ustuvorlik berish asosida takomillashtirilgan;

mintaqaning turistik salohiyatini baholash turistik obyekt salohiyatidan foydalanish ko'rsatkichlarini to'liq qamrab olish va haqqoniyligi nuqtai nazaridan uning kuchli va kuchsiz tomonlarini aniqlashda omillar integral ko'rsatkichi va mamlakat hududlarining reyting koeffitsiyentiga ustuvorlik berish asosida darajalash maqsadga muvofiqligi asoslangan;

mintaqaning turizm salohiyatidan foydalanish samaradorligini aniqlash yondashuvi hududda turizmga sarflanadigan xarajatlarning prognoz qilingan daromadlarga nisbatini hisobga olish davriy baholashga ko'ra takomillashtirilgan va unga ko'ra hudud salohiyatining prognoz qilingan va amalda foydalanilgan ko'rsatkichlari o'rtasidagi farqdan samarali foydalanish maqsadga muvofiqligi asoslangan;

Buxoro viloyatida turizmni rivojlantirishning 2024-2026 yillar uchun prognoz parametrlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

"mintaqaning turistik salohiyati" tushunchasining mazmuni ochib berilgan va mohiyati aniqlangan;

mintaqaning turistik salohiyatini va reyting koeffitsientini integral baholash ko'rsatkichini joriy etish orqali mintaqaning turistik salohiyatini baholashning takomillashtirilgan metodologiyasi taklif qilingan;

mintaqaning turistik salohiyatidan foydalanish samaradorligi ko'rsatkichlari mintaqaning turistik faoliyatdan prognoz qilingan rentabelligi, mintaqaning turizm xarajatlari kabi miqdorlarni kiritish orqali aniqlangan;

quyidagi takliflar ishlab chiqilgan: mamlakat bo'ylab sayyohning to'siqsiz kompleks harakatlanishi uchun arzon ommabop dasturni ishlab chiqish, xorijiy mamlakatlardan ham, mamlakat ichida ham arzon va ko'proq reyslarni qo'yish, Buxoro mintaqasining turistik salohiyatidan samarali foydalanish maqsadida tegishli infratuzilmani kengaytirish orqali yuqori xarid qobiliyatiga ega turistning mamlakatga jalb qilish;

Buxoro viloyatida turizmni rivojlantirishning 2024-2026 yillarga mo'ljallangan prognoz parametrlari hamda mintaqaning turizm faoliyatidan kelajakdagi rentabellik hisoblab chiqilgan;

"mintaqaning turistik salohiyatini" aniqlashda uslubiy yondashuvlarni o'rganish va tahlil qilish natijalari SCOPUS bazasiga kiruvchi "The Seylbod report" ilmiy nashrda maqola sifatida chop etilgan, Q3, №18, 04.10.2023, (ISSN: 1533-9211).

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi qo'llanilgan yondashuv va usullarning maqsadga muvofiqligi, ma'lumotlarning rasmiy manbalardan, jumladan, O'zbekiston Respublikasining me'yoriy-huquqiy hujjatlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi, O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi huzuridagi Turizm qo'mitasi olingani hamda tegishli xulosa va tavsiyalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan amaliyotga joriy qilingani bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati mintaqaning turizm salohiyatini baholash va undan foydalanish samaradorligini aniqlash uchun ilmiy natijalardan foydalanish, ushbu yo'nalishda metodologik apparatni takomillashtirish, Buxoro viloyatida milliy iqtisodiyotni raqamlashtirish davrida turizmni samarali rivojlantirish mexanizmini aniqlash vositalari bilan tasdiqlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ularni ma'lum bir mintaqada turizmni samarali tashkil etish uchun qo'llash imkoniyati bilan belgilanadi, bu turistik yo'nalishlarning raqobatbardoshligini oshiradi, shuningdek mintaqaviy turizmni yanada rivojlantirish dasturining monitoringini ishlab chiqish va amalga oshirishda. Dissertatsiya materiallari oliy o'quv yurtlarida o'quv rejalari, darsliklar, o'quv qo'llanmalarini ishlab chiqish va takomillashtirishda, "Mintaqaviy turizm", "Turizm iqtisodiyoti", "Turistik hududlarni boshqarish" kabi fanlar uchun ishlatiladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Buxoro viloyatining turizm salohiyatini baholash va ulardan foydalanish samaradorligini oshirish bo'yicha ilmiy-nazariy takliflar va amaliy tavsiyalar asosida:

uslubiy yondashuvga ko'ra "mintaqaning turizm salohiyati" tushunchasining iqtisodiy mazmuni turistik resurslar bo'yicha tarixiy-madaniy va tabiiy-iqlimiy, mehmondo'stlik imkoniyatlari bo'yicha mutaxassislar malakasi, mahaliy aholining turistlarga ochiqligi va turizm infratuzilmasi, ob'ektlarning o'tkazish salohiyati bo'yicha turizmning mahalliy aholi turmushiga ta'siri va turizm rivojlanishining turistik ob'ektlarga ta'siri omillariga ustuvorlik berish asosida takomillashtirish taklifi oliy o'quv yurtlari talabalari uchun mo'ljallangan "Mintaqaviy turizm" nomli o'quv qo'llanmani tayyorlashda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi 2022-yil 30-dekabrda 429-49-sonli buyrug'i). Mazkur ilmiy yangilikning amaliyotga joriy etilishi natijasida "mintaqaning turizm salohiyati" tushunchasini takomillashtirishga va turizm sohasi mutaxassislarini o'qitish sifatini oshirishga imkon yaratilgan;

mintaqaning turistik salohiyatini baholash turistik obyekt salohiyatidan foydalanish ko'rsatkichlarini to'liq qamrab olish va haqqoniyliqi nuqtai nazaridan uning kuchli va kuchsiz tomonlarini aniqlashda omillar integral ko'rsatkichi va mamlakat hududlarining reyting koeffitsiyentiga ustuvorlik berish asosida darajalash maqsadga muvofiqligi bo'yicha berilgan taklifi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 9-fevraldagi PF-6165-son "O'zbekiston Respublikasida ichki va ziyorat turizmini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmonida (2-ilova, 5-band)da ishlatilgan (O'zbekiston Respublikasi turizm va madaniy meros vazirligining 10.01.2023-yildagi 04-18/114-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy yangilikning amaliyotga joriy etilishi natijasida nafaqat turistik resurslarni, balki butun turistik infratuzilmani hisobga olgan holda mintaqaning turistik salohiyatini baholashning aniqligi oshgan. Ilmiy natijalardan foydalanish mamlakatning barcha mintaqalarining turistik salohiyatidan foydalanish samaradorligini baholash imkonlarni yaratgan;

mintaqaning turizm salohiyatidan foydalanish samaradorligini aniqlash yondoshuvi hududda turizmga sarflanadigan xarajatlarning prognoz qilingan daromadlarga nisbatini hisobga olish davriy baholashga ko'ra takomillashtirilgan va

unga ko'ra hudud salohiyatining prognoz qilingan va amalda foydalanilgan ko'rsatkichlari o'rtasidagi farqdan samarali foydalanish maqsadga muvofiqligi bo'yicha berilgan taklifidan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "2022-2026-yillarda Buxoro viloyatining turizm sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2023-yil 29-sentabrdagi 543-son qarorini ishlab chiqishda foydalanilgan (2-ilova 1,5,9,13,15,25-bandlar) (O'zbekiston Respublikasi turizm va madaniy meros vazirligining 10.01.2023-yildagi 04-18/114-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy yangilikning amaliyotga joriy etilishi natijasida mintaqada turizmni rivojlantirish uchun sarflangan xarajatlarning samaradorligini hisoblashda imkon yaratilgan;

Buxoro viloyatida turizmni rivojlantirishning 2024-2026 yillar uchun prognoz parametrlari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "2022-2026-yillarda Buxoro viloyatining turizm sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2023-yil 29-sentabrdagi 543-son qarorini ishlab chiqish uchun foydalanilgan (2-ilova 1,5,9,13,15,25-bandlar) (O'zbekiston Respublikasi Turizm va madaniy meros vazirligining 10.01.2023-yildagi 04-18/114-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy yangilikning amaliyotga joriy etilishi natijasida 2024-2026 yillarda turizmni rivojlantirish bo'yicha rejalashtirilgan tadbirlarni amalga oshirish va turistlar sonini 27,6739 foizga oshirish imkoni yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Ushbu tadqiqot natijalari 6 ta xalqaro, 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha 22 ta ilmiy ishlar, shu jumladan, OAK e'tirof etgan jurnallarda 3 ta, nufuzli horijiy jurnallarda 11 ta ilmiy maqola, shuningdek, Respublika va xalqaro ilmiy-amaliy konferentsiyalarda 8 ta ma'ruza tezislari nashr qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat bo'lib, uning hajmi 130 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish qismida** tadqiqot mavzusining dolzarbligi asoslangan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, ob'yekti va predmeti tavsiflab berilgan, O'zbekiston Respublikasida fan va texnikaning ustuvor vazifalariga muvofiqligi ko'rsatib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etish, nashr qilingan ishlar, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi haqidagi ma'lumotlar berilgan.


Dissertatsiyaning **"Mintaqaning turistik salohiyatini rivojlantirishning nazariy va uslubiy asoslari"** deb nomlangan birinchi bobida mintaqaning turistik salohiyatini rivojlantirishning nazariy va uslubiy asoslari tahlil qilingan, milliy iqtisodiyotning asosiy elementi sifatida mintaqaviy turizmni rivojlantirishning xorijiy tajribasi o'rganib chiqilgan.

Muayyan hududda turizmni rivojlantirishning mohiyati ma'lum bir mintaqada ma'lum bir turistik salohiyat mavjudligini ta'kidlash kerak, bu esa o'z navbatida uni rivojlantirish uchun jamoat manfaati hisoblanadi. Biroq, "salohiyat" atamasini aniqlash ayrim hollarda juda qiyin bo'ladi chunki turli mualliflar bu so'zga o'ziga

xos tarkib yuklaydilar, chunki bu atamaning umume'tirof etilgan va keng tarqalgan professional talqinlari mavjud emasligi va undan ko'pincha keng tarqalgan, shubhasiz atama sifatida foydalaniladi. Shu bilan birga, bu atamaning mohiyati elementarlikdan yiroq va turizm sohasida ozmi-ko'pmi aniq chegaralar bilan cheklanishi kerak⁷.

Muallif tomonidan olimlarning "turistik salohiyati" atamasiga yuklaydigan atamalarni tahlil qilingan. Bir qator olimlar "turistik salohiyat" atamasiga o'ziga xos ta'rifini berib o'tgan va turli nuqtai nazardan ko'rib chiqib baholagan, ular orasida: E.A. Djanjugazov, M. Sazykin, T.V. Nikolaenko, S.A. Shabalina, V. A. Rubtsova, S.L. Sichev, N.I. Panova, kabi olimlarning ishlari o'rganildi.

Turistik salohiyatning barcha mumkin bo'lgan talqinlari va tushunchalarini o'rganib chiqib, ushbu paragrafda muallif tomonidan "mintaqaning turistik salohiyati"ning mavjud ta'rifi takomillashtirdi va mintaqaning turistik salohiyatining tuzilmasi ishlab chiqildi (1-rasm). Bu yerda mintaqaning turizm salohiyati - bu hududning tarixiy, madaniy va tabiiy-iqlim salohiyatini o'z ichiga olgan turizm resurslari, shuningdek, mehmondo'stlik sanoatining yig'indisi bo'lib, muallif butun turizm infratuzilmasi va xizmat ko'rsatish sohasini nazarda tutadi va o'tkazish qobiliyatining yig'indisi, bu esa o'z navbatida tashrif buyurilgan ob'ektlar va aholining ijtimoiy hayotiga zarar yetkazmasdan ushbu mintaqani turistlar oqimini qabul qilishi mumkinligini ko'rsatadi.



1-rasm. Hududning turistik salohiyati tuzilmasi⁸

Muallif tomonidan taklif qilingan "mintaqaning turistik salohiyati" ta'rifining o'ziga xos xususiyati turizm nuqtai nazaridan mintaqaning jozibadorligini belgilaydigan barcha omillarning yig'indisidir.

Mintaqaning turistik salohiyatini baholash metodologiyalariga kelsak, turizm sohasidagi ilmiy tadqiqotlar mintaqaning turistik salohiyatini baholashning ko'p

⁷ Кусков А. С. Туристское ресурсоведение: Учебник для студ. высш. учеб. заведений / Алексей Сергеевич Кусков. – М.: Издательский центр «Академия», 2008. – с.31

⁸ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan

Mintaqaning turistik salohiyatini baholashga turli xil yondashuvlar⁹

№	O'rganilgan metodologiyalar mualliflari	O'rganilgan metodologiyalardagi yondashuvlar	O'rganilgan metodologiyalardagi kamchiliklar
1	Мамраева Д.Г., Ташенов Л.В. Методический инструментарий оценки туристско-рекреационного потенциала региона // Экономика региона.- 2020.-Т.16, вып.1 – С.127-140	Mintaqaning turistik va rekreatsion salohiyatini (TRP) 5 parametr bo'yicha baholashning uslubiy vositalari ishlab chiqilgan	O'tkazish qobiliyatini baholash yo'q
2	Кирильчук С.П., Музыка А.С.. "Пятиэтапная схема декомпозиционного анализа как методологическая модель оценки ресурсного потенциала туризма" Экономика строительства и природопользования, no. 1 (74), 2020, pp. 91-99	Qulay besh bosqichli vositalar yordamida resurs-turistik salohiyatni miqdoriy baholash uchun uslubiy yondashuv ishlab chiqildi.	Turizm sohasida ba'zi ma'lumotlarni baholash va aniq raqamlarni olish mumkin emasligi sababli (masalan, masjidga tashrif buyuradigan ziyoratchilarning aniq sonini bilish), bu usul turizmning resurs salohiyatini sub'ektiv baholashning usulidir
3	Богданов Е.И. «Планирование на предприятии туризма», Учебное пособие для вузов СПб. Изд.дом "Бизнес-пресса". 2003 год. 288с.	Hududning turistik salohiyati samaradorligini baholash uchun muallif quyidagi tushunchalarni ajratib turadi: a) turistik salohiyatning kattaligi; b) turistik salohiyat resurslarining umumiy hajmi; v) turistik salohiyatni amalga oshirish ko'rsatkichi.	Ushbu metodikada tashrif buyuruvchilar orasida talab qilingan ob'ekt sifatida mintaqaning turistik salohiyatining jozibadorligi aniqlash ko'rsatkichi yo'q.
4	Митрофанова Е.С. Управление развитием туристского потенциала региона на основе государственно-частного партнерства, автореферат, Санкт-Петербург-2010	Ushbu metodologiyadagi integral ko'rsatkich quyidagi elementlarni o'z ichiga oladi: turistik va rekreatsion potentsialni baholaydigan va hududlarning salohiyatidan foydalanish shartlarini belgilaydigan element	Mintaqaning turistik salohiyatini o'rganishda ushbu uslub mintaqaning infratuzilmasi, o'rganilayotgan hududlarning avtoulavlari va piyoda foydalanish imkoniyati, umumiy ovqatlanish korxonalarida va mehmonxonalarda xizmat ko'rsatish darajasi, mintaqaning turistik sanoatida ishtirok etadigan ishchilarning malaka darajasi kabi muhim ko'rsatkichlarni o'z ichiga olmaydi.
6	Алимова Г.А. «Социально-экономическое развитие региона на основе эффективного использования рекреационно-туристического потенциала (на примере Ташкентской области)», автореферат, Ташкент-2019	Mintaqaning rekreatsion salohiyatini baholash rekreatlar va o'rganilayotgan hududning mahalliy aholisi o'rtasida o'tkazilgan so'rov orqali qo'llaniladi.	Mintaqaning turistik salohiyatini to'liq va ob'ektiv baholash uchun miqdoriy va sifat jihatidan iqtisodiy ko'rsatkichlarni hisobga olish lozim
7	Muallif tomonidan ishlab chiqilgan mintaqaning turistik salohiyatini hisoblash metodologiyasi.	Muallif tomonidan hududning turistik salohiyatini integral baholash ko'rsatkichi (destinatsiya) va reyting koeffitsientini joriy etish orqali mintaqaning turistik salohiyatini hisoblash metodologiyasi takomillashtirdi. Mintaqaning turistik salohiyatini integral baholashni hisoblash uchun turizm salohiyatining eng muhim va ob'ektiv ko'rsatkichlari matritsasi ishlab chiqilgan.	<u>Muallif tomonidan taklif qilingan usulning afzalligi</u> Olingan ko'rsatkichlarni qo'llagan holda, biz matritsa tizimida foydalanadigan ko'rsatkichlarni hisobga olgan holda ularni yanada rivojlantirish uchun hududlarning kuchli va zaif tomonlarini hisoblash uchun mamlakat mintaqalarini tartiblashimiz mumkin. Mintaqaning turistik salohiyatini aniqlashning biz o'rgangan usullari shuni ko'rsatdiki, ularning barchasi faqat ma'lum bir mintaqaning salohiyatini bir tomonlama aniqlashga qaratilgan. Biz integral ko'rsatkichni aniqlash uchun matritsa tizimini ishlab chiqdik va shu ko'rsatkich asosida O'zbekiston mintaqalarini tartibladik.

⁹ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan

vazifalarini hisobga olishadi, buning uchun muallifning fikriga ko'ra, undan foydalanish istiqbollari aniqlash maqsadga muvofiqdir.

Shu munosabat bilan, muhim omillardan biri bu mintaqada turizmni tashkil etish modelini ishlab chiqish bo'lib, ularni rivojlantirish uchun mablag' va sa'y-harakatlarning dastlabki konsentratsiyasiga muhtoj bo'lgan hududlarni va mehmondo'stlik sanoati infratuzilmasini rivojlantirish samarasiz bo'lgan potentsial hududlar va ob'ektlarni ajratishdir.

Dissertatsiya ishida hududlarning resursli turistik salohiyati yig'indisini integral baholash uchun mavjud metodologiyalarning nazariy va uslubiy asoslarini tahlil qilingan (1-jadval).

Muallifning fikricha mavjud usullarning kamchiligi shundaki, integral baholashni hisoblashda muallif tomonidan ishlab chiqilgan matritsadagi ko'rsatkichlarni to'liq va ob'ektiv spektrini qamrab olmaydi. Buxoro O'zbekiston tarixi va madaniyatining muhim qismidir va uning salohiyatini boshqa mintaqalar bilan solishtirish juda muhim.

Binobarin, muallifining fikriga ko'ra, o'rgangan barcha usullar turistik salohiyatni baholashni qo'llash va hisoblash uchun mumkin, chunki ular o'z ichiga ushbu usullar mualliflarining ishlab chiqilgan tahlillarini va aniqlagan parametrlarni o'z ichiga oladi. Tadqiqotchi tomonidan ishlab chiqilgan mintaqaning turistik salohiyatini aniqlash usuli, mintaqaning turistik salohiyatini aniqlashda eng samarali va ob'ektiv deb ko'rinadi.

Ushbu bobda muallif tomonidan o'z hududida turizmni rivojlantirish va ushbu tajribani barqaror saqlash sohasidagi xorijiy mamlakatlarning tajribasi batafsil va chuqur o'rganib chiqildi va tahlil qilindi. O'zbekiston uchun turizm industriyasi hali ham rivojlanib borayotgan majmuadir, shuning uchun o'sish sur'atlarini saqlab qolish va ularni yanada oshirish uchun respublika bozoriga kirishning yangi formatlarini, ushbu sohada paydo bo'layotgan muammolarni hal qilish yo'llarini izlash va mamlakatga qiziqishni yanada rivojlantirish zarur.

Bunga asoslanib, turizm mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishning asosiy omili bo'lgan va davlat hamda viloyat darajasida tartibga solinadigan mamlakatlarga e'tibor qaratish lozim. Frantsiya, Xitoy, Turkiya kabi mamlakatlarda turizmni rivojlantirish tajribasini hisobga olish va ularni mamlakatimizning turizm sohasini rivojlantirish uchun qo'llash maqsadga muvofiqdir. Muallif tomonidan rivojlangan mamlakatlarning muvaffaqiyatli tajribasini o'rganish asosida bir qator takliflarni ishlab chiqildi:

mamlakatda turizmni strategik rivojlantirish bu ko'p vazifali tizim bo'lib, uning tuzilishi turli bo'limlar, idoralar va organlar, shu jumladan nodavlat tashkilotlar tomonidan tartibga solinishi va boshqarilishi kerak, ular mamlakatda turistik mahsulotni ilgari surish va rivojlantirish uchun bir-biri bilan o'zaro aloqada bo'ladi;

kraudfanding tajribasi hozirgi zamon voqeliklarida mintaqalarning turistik salohiyatini mutlaqo yangi yo'nalishlarda rivojlantirishda eng muvaffaqiyatli hisoblanadi. Agarda biz Buxoro viloyatiga e'tibor qaratsak, unda mintaqaning iqlim va milliy xususiyatlarini hisobga olgan holda o'ziga xos madaniyat, urf-odatlar va turmush tarzi nuqtai nazaridan qishloq turizmini rivojlantirish uchun ulkan salohiyat mavjudligini ko'rishimiz mumkin;

mamlakatda ham, viloyatlarda ham turizmni rivojlantirishning uzoq muddatli strategiyasini ishlab chiqish mamlakat turizmini muntazam ravishda rivojlantirishning asosiy regulyatori bo'lib xizmat qiladi. Uzoq muddatli strategiyalarni amalga oshirish uchun samarali chora-tadbirlar asosida vakolatli va raqobatbardosh rivojlanish dasturlarini ishlab chiqishga xizmat qiladi: mintaqa, turistik ob'ekti yoki madaniy tadbir. Dasturlarni amalga oshirishda aniq rejaga rioya qilish, uni amalga oshirish bo'yicha qilinayotgan tadbirlarning barcha xususiyatlarini hisobga olish va barcha manfaatdor tomonlarni faol jalb qilish kerak;

Turkiya misolida O'zbekiston Respublikasi hududlarida turizm sohasini diversifikatsiya qilish mamlakatga o'z imkoniyatlarini kengaytirishga va mintaqaga ko'proq xorijiy turistlarni jalb qilishga, turizm sohasidan olinadigan daromadni oshirishga yordam beradi, shu bilan respublika viloyatlariga o'z hududlarini ijtimoiy va iqtisodiy jihatdan takomillashtirishda yordam beradi. Bu O'zbekiston viloyatlarining rivojlanishiga, ta'lim olishiga, umumiy aholining daromad darajasi va turmush darajasini oshirishga turtki beradi. Turizmni yuqorida aytib o'tilgan takomillashtirishning zaruriy sharti Turkiya misolida uzoq vaqt davomida turizm sanoatini rivojlantirish bo'yicha puxta ishlab chiqilgan strategiya bo'lishi mumkin.

Ushbu sohadagi yetakchi mamlakatlar misolida turizmni rivojlantirishning xorijiy tajribasini hisobga olgan holda, mintaqalarda turizmning rivojlanishi turistik ob'ekti joylashgan hududga qarab o'zgarib turadigan ko'plab omillarga bog'liq degan xulosaga kelishimiz mumkin. Ushbu tadqiqotlarning barchasi turizmni rivojlantirishda asosiy qo'llab-quvvatlashda davlatning, yaxshi shakllangan strategiyalar va turizm sohasini ilgari surish dasturi va ushbu rejalarni ishlab chiqish uchun parallel ravishda tashkil etilgan, o'z hududlarida turizmni takomillashtirishni qo'llab-quvvatlash uchun idoraviy mansub bo'linmalar tomonidan tizimlashtirilganligini chuqurroq tushunishga imkon beradi.

Dissertatsiyaning **“Buxoro viloyatining turizm salohiyatini baholash va undan foydalanish samaradorligini tahlil qilish”** deb nomlangan ikkinchi bobida Buxoro viloyatida turizm sohasi rivojlanishining hozirgi holati tahlil qilingan, mintaqada turizmning rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar baholangan va Buxoro viloyatining turizm sohasi bilan bevosita va bilvosita bog'liq bo'lgan turistlar va shaxslar o'rtasida o'tkazilgan sotsiologik so'rov natijalari, tadqiqotchi tomonidan olib borilgan.

Xorijiy materiallarning statistik ma'lumotlarini o'rganish shuni ko'rsatdiki, “turistik turar joylardagi har 1000 ta joy xizmat ko'rsatish sohasida o'rtacha 459 ta ish o'rinlarini yaratadi (ularning 2/3 qismi mehmondo'stlik sanoatida, qolganlari xizmat ko'rsatish sohasining boshqa sohalorida). Mehmondo'stlik sanoatidagi 100 ta ish uchun savdo xizmatlari (11 ta joy), sug'urta va bank xizmatlari (2) va boshqalar kabi sohalarda 50 ga yaqin ish o'rinlari talab qilinadi.”¹⁰

Shuningdek, muhim narsani hisobga olish kerak – bu turistik faoliyatning mahalliy ijtimoiy hayotga ta'sirininining madaniy o'lchovdir. Bu turizmning odamlar hayotining ma'naviy va moddiy sohalariga, birinchi navbatda ularning qadriyatlarini, bilimlari va ijtimoiy xulq-atvoriga ta'siri. To'g'ridan-to'g'ri madaniy va ijtimoiy

¹⁰ International Tourism Highlights 2019 Edition, UNWTO, 2020

ta'sir darajasi turistlarni joylashtirish sanoatining rivojlanishi bilan bog'liq bo'lib, mehmonlar va mahalliy aholining turli madaniy va ijtimoiy darajalari bilan belgilanadi. Madaniy va ijtimoiy darajalarga turmush tarzi, xulq-atvor me'yorlari, urf-odatlar va diniy e'tiqodlar kiradi.

O'zbekistonning muhimligi va rivojlanishi bo'yicha yetakchi mintaqalardan biri bo'lgan Buxoro viloyati turizm industriyasi hisobiga o'z iqtisodiyotini rivojlantirish uchun katta imkoniyatlarga ega. Buning uchun mintaqada yetarli shartlar va imkoniyatlar mavjud. 2-jadvalda Buxoro viloyatining joylashtirish obyektlarining butun respublikaga nisbatan ulushini ko'rib chiqqanmiz.

2-jadval

Respublika kesimida Buxoro viloyatining obyektlar turistlarni joylashtirish bo'yicha ulushi 2022 yil¹¹

Ko'rsatkichlar	O'zbekiston Respublikasi	Buxoro viloyati	Buxoro viloyatining Respublikaga nisbatan ulushi
Mehmonxonalar va shunga o'xshash turar joylar (ob'ektlar)	1167	483	41,4%
Turar joylar soni	59321	12548	21,2%

